IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: YV50744241

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Tasdiqlayman”**
**Qo‘qon davlat universiteti**
**rektori D.Sh.Xodjayeva**
**30-iyun 2025-yil**

# DAKTILOLOGIYA VA IMO-ISHORAGA O‘RGATISH METODIKASI FANNING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000-Ta’lim |
| **Ta’lim sohasi:** | 110000- Ta’lim |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60110300 –Maxsus pedagogika (Surdotarjimonlik) |

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>DIIO'M140<br>4</td><td>O‘quv yili<br>2025-2026</td><td>Semestr<br>3-4</td><td colspan="2">YeCTS - Kreditlar<br>4-4</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek/rus</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>4-4</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Daktilologiya va imo-ishoraga o‘rgatish metodikasi</td><td>120</td><td>120</td><td>240</td></tr>
</table>

**2.** **I. Fanning mazmuni**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – Daktilologiya va imo-ishoraga o‘rgatish metodikasi va uning o‘ziga xosligi haqida talabalarda aniq tasavvur hosil qilish va bu nutq shaklidan amaliyotda foydalnishga o‘rgatishidir.

**Fanning vazifasi** – talabalarni daktilologiya va imo-ishora nutqni mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish, daktilologiya va imo-ishora nutqi kursini o‘rganish jarayonida amaliy mashg‘ulotlarda talabalarda bo‘lg‘usi faoliyati uchun zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, daktilologiya va imo-ishoradan foydalanishga o‘rgatish, daktilologiya va imo-ishora nutqi orqali tarjima qilishga o‘rgatishdan iborat.

**Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi:**

Daktilologiya va imo-ishoraga o‘rgatish metodikasi fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Kyoln universiteti (Germaniya)ning Nemis imo-ishora tili fanining o‘quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo‘yicha 291- o‘rinni egallagan bo‘lib, imo-ishora tili bo‘yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega.

**Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:**

**Nazariy va amaliy yondashuv uyg’unligi -** Kyoln universitetining Nemis imo-ishora tili kursida imo-ishora tili tarjimonlari eshitadigan va karlar o'rtasida to'siqsiz muloqot qilish imkonini beradi.

**Xalqaro standartlarga muofiqlik-** Nemis imo-ishora tili – nemis tili dasturi tarjimashunoslik, tilshunoslik va surdopedagogika fanlariga asoslangan. Kurs tarjimonlik kasbi bilan shug'ullanish uchun asos bo'lgan muhim bilim va malakalarni beradi.

**Tanqidiy fikirlash va tahlil ko’nikmalarini rivojlantirish-** Shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy va fanlararo ko'nikmalarni egallash bitiruvchilarga nemis-nemis imo-ishora tili (DGS) tarjimoni sohasida ishlash uchun zarur shart-sharoitlarni beradi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Daktilologiyaning mazmuni, maqsadi va egallash metodlari**

Karlar, zaif eshituvchilar va ko‘zi ojizlarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida daktilalogiyaning qo‘llanilishidagi tarixiy man`balar.

**2-mavzu. Daktilologiya – barmoq alifbosi**

Daktilologiya – qo‘l alifbosi. Daktilologiya turlari: bir qo‘lli, ikki qo‘lli, kaft daktilologiyasi. Bir qo‘lli daktilologiyaning afzalliklari. Dunyo mamlakatlarining daktil alifbosi. Daktil nutqning mohiyati va uning og‘zaki so‘zlashuv, og‘zaki va yozma nutqqa nisbatan o‘ziga xos xususiyatlari.

**3-mavzu. Daktil belgilarning ta`rifi**

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga daktil nutqni o‘rganishga qo‘yilgan talablar bo‘yicha bilimlarlarni shakllantirish.

**4-mavzu. Kar va zaif bolalarni daktil nutkini egalashning psixologik xususiyatlari**

Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar bilan olib boriladigan o‘quv-tarbiyaviy ishlarida daktil nutqni qo‘llashga qoyilgan asosiy talablar. Og‘zaki so‘zlashuv nutqini imo-ishora nutqga tarjima qilishda daktil nutqining tutgan o‘rni. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida daktil nutqini o‘rgatishda bolalarning psixologik xususiyatlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

**5-mavzu. Og‘zaki so‘zlashuv nutqni tarjima qilishda daktil nutkning tutgan o‘rni.**

Karlarning imo-ishora nutqi va uning og‘zaki so‘zlashuv (og‘zaki, yozma, daktil) formasidan farqi. Imo-ishora nutqining karlarni o‘qitishda tutgan o‘rni. Imo-ishora nutqning tarkibiy qismlari: nutqni ifodalovchi harakat (qo‘llar harakati), mimika (yuz ifodasi), artikulyasiya, daktilologiya, pantomima.

**6-mavzu. Imo-ishora nutqning karlarni o‘qitishda tutgan o‘rni**

Karlarni o‘qitishning turli bosqichlarida imo-ishorali nutqning tutgan o‘rni. Imo-ishorali nutqni bilishi va kar bolalar ta`lim-tarbiyasi jarayonida qo‘llab olishining surdopedagog uchun ahamiyati. Eshituvchilar va karlar orasida muloqot vositasi sifatida tutgan o‘rni va ahamiyati, ularning so‘zlari nutqni, imo-ishorali nutqni uning texnikasi.Talabalarga imo-ishora nutqi, imo-

| | |
|---|---|
| | ishora nutqining karlarni o‘qitishda tutgan o‘rni haqida bilim va malakalar berish<br>**7-mavzu. Imo-ishora tilning taraqqiyoti, lug‘ati.**<br>Karlarning imo-ishora nutqi va uning og‘zaki so‘zlashuv (og‘zaki, yozma, daktil) formasidan farqi. Imo-ishora nutqining karlarni o‘qitishda tutgan o‘rni. Imo-ishora nutqning o‘ziga xosligi.Talabalarda imo-ishora tilining taraqqiyoti haqidagi bilimlarni tarkib toptirish. Yangi so‘zlar, tushunchalar, abstrakt tushunchalar, atoqli otlar, atamalar, grammatik kategoriyalar uchun yangi ishoralarning shakllanishi. Yangi ishoralarning imo-ishoralar tili tizimidagi o‘rni. Imo-ishoralarning lug‘ati. Xalqaro imo-ishorali lug‘at. Karlarni o‘qitishning turli bosqichlarida imo-ishorali nutqning tutgan o‘rni. Imo-ishorali nutqni bilishi va kar bolalar ta`lim-tarbiyasi jarayonida qo‘llab olishining surdopedagog uchun ahamiyati. Eshituvchilar va karlar orasida muloqot vositasi sifatida tutgan o‘rni va ahamiyati, ularning so‘zlari nutqni, imo-ishorali nutqni uning texnikasi.<br>**8-mavzu. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda imo-ishora nutqni o‘rganishga qo‘yilgan talablar**<br>Imo-ishora belgilarning ta`rifi. Imo-ishora qoidalari. Kar va zaif eshituvchi bolalarni Imo-ishora nutqni egallashining psixologik xususiyatlari. Imo-ishora nutqning kar bolalar bilan olib boriladigan o‘quv tarbiya ishlarida yordamchi vosita sifatida tutgan o‘rni. Imo-ishora nutqni o‘quvchilar va o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilishi.<br>**9-mavzu. Eshitishda nuqsoni bor bolalarni o‘qitishdagi turli bosqichlarda imo-ishora nutqning o‘rni va ahamiyati**<br>Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar bilan olib boriladigan o‘quv-tarbiyaviy ishlarida Imo-ishora nutqni qo‘llashga qo‘yilgan asosiy talablar. Og‘zaki so‘zlashuv nutqini imo-ishora nutqga tarjima qilishda daktil nutqining tutgan o‘rni.<br>**10- mavzu. Imo-ishora nutqning mazmuni, maqsad va egallash metodlari**<br>Karlarning imo-ishora nutqi va uning og‘zaki so‘zlashuv (og‘zaki, yozma, daktil) formasidan farqi. Imo-ishora nutqining karlarni o‘qitishda tutgan o‘rni. Imo-ishora nutqning tarkibiy qismlari: nutqni ifodalovchi harakat (qo‘llar harakati), mimika (yuz ifodasi), artikulyasiya, daktilologiya, pantomima. Imo-ishora nutqning o‘ziga xosligi. Imo-ishoraning o‘ziga xos xususiyatlari: imo-ishoraning obrazliligi, uning predmet bilan, harakat bilan, predmetning belgisi bilan, vaziyat, ahamiyat bilan aloqasi, imo-ishora nutqning polisemantizmi. Imo-ishoralarning kelib chiqishi. Imo-ishoraning tasnifi. Imo-ishorali nutqning madaniyati. Imo-ishorali va og‘zaki nutqning |

o‘zaro aloqadorligi. Imo-ishorali nutq eshitishi nuqsonli bolalarni o‘qitishda qo‘llaniladigan maxsus yordamchi vosita.

**11-mavzu. Talaffuzni shakllantirishning mazmuni, maqsadi va egallash metodlari**

Talaffuzni shakllantirishning asosiy maqsadi va vazifasi tinglovchilarga bolalar nutqidagi kamchiliklar tipologiyasi to‘g‘risida aniq, ravshan tasavvur berish hamda nutq kamchiliklarini bartaraf etish metodikasi va maxsus muassasalarda korrektsion ishlarni tashkil etish va o‘tkazish boyicha etarlicha metodik yo‘llanmalar berish, kar bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda talaffuz malakalarini shakllantirish hamda eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodlarini o‘rgatishdan iborat.

**12-mavzu. Kar va zaif eshituvchilarga talaffuzni o‘rganishga qo‘yilgan talablar**

Bu kursni o‘rganish natijasida tinglovchilar quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashlari lozim:

1. Kar bolalar nutqining talaffuz tomonini tekshirish;
2. Kar bolalarda talaffuz kamchiliklarini aniqlay olish;
3. Talaffuzga o‘rgatish boyicha olib boriladigan ishlarni rejalashtirish va ish turlarini tashkil etish;
4. Karlarni og‘zaki nutqqa o‘rgatish metodlari;
5. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodlari;
6. O‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish.

**13-mavzu. Eshitishda nuqsoni bor bolalarni o‘qitishdagi turli bosqichlarda talaffuzning o‘rni va axamiyati**

Ushbu kursni o‘qishda umumiy pedagogika, psixologiya, maxsus metodika fanlaridan olingan bilimlarga asoslaniladi.

Talaffuz malakalarini shakllantirish metodikasi bolalarni og‘zaki nutqqa o‘rgatish; texnik vositalardan foydalanish; og‘zaki nutqqa o‘rgatish metodlari va bosqichlari; og‘zaki nutqqa o‘rgatishda amalga oshiriladigan ish turlari kabi masalalarni aks ettiradi.

Talaffuzni shakllantirish metodikasi kursida, plakatlardan, tarqatma materiallardan va boshqa ko‘rgazmali qurollardan foydalaniladi.

**14-mavzu. Talaffuzning mazmuni, maqsad va egallash metodlari**

Karlarning talaffuzi va uning og‘zaki so‘zlashuv (og‘zaki, yozma, daktil) formasidan farqi. Talaffuzning karlarni o‘qitishda tutgan o‘rni. Talaffuzning tarkibiy qismlari: nutqni ifodalovchi harakat (qo‘llar harakati), artikulyasiya, daktilologiya, pantomima. Talaffuzning o‘ziga xosligi.

**15-mavzu. Talaffuzning taraqqiyoti**

| | |
|---|---|
| | Talaffuzning o'ziga xos xususiyatlari: talaffuzning obrazliligi, uning predmet bilan, harakat bilan, predmetning belgisi bilan, vaziyat, ahamiyat bilan aloqasi. Talaffuzning kelib chiqishi. Talaffuzning tasnifi. Talaffuz madaniyati. Talaffuz va og'zaki nutqning o'zaro aloqadorligi. Talaffuzni o'qitishda qo'llaniladigan nutqiy material eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maxsus yordamchi vositasidir.<br>**16- mavzu. Talaffuz ustida ish olib borishning tizimi**<br>Talaffuz ustida ish olib borishning bosqichlari. Yillar davomida nutqiy materiallarni murakkablashtirib borilishi. Karlar maktabida talaffuz ustida ish olib borilishi.<br>Talaffuzni shakllantirish metodikasi kursida, plakatlardan, tarqatma materiallardan va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.<br>**17- mavzu. Umum - ta'lim darslarida talaffuzni shakllantirish mazmuni va metodikasi**<br>Karlar maktabida umum-ta'lim darslarida talaffuzni shakillantirishning mazmuni va masalalari. Umum-ta'lim darslarida talaffuzni shakillantirishda nutqiy materialning roli. Talaffuz va og'zaki nutqning o'zaro aloqadorligi.<br>**18-mavzu. Eshitish idrokini rivojlantirishning mazmuni, maqsadi va egallash metodlari**<br>Eshitish idrokini rivojlantirishning asosiy maqsadi va vazifasi tinglovchilarga bolalar nutqidagi kamchiliklar tipologiyasi to'g'risida aniq, ravshan tasavvur berish hamda nutq kamchiliklarini bartaraf etish metodikasi va maxsus muassasalarda korrektsion ishlarni tashkil etish va o'tkazish boyicha yetarlicha metodik yo'llanmalar berish, kar bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodlarini o'rgatishdan iborat.<br>**19-mavzu. Eshitish idrokini rivojlantirishga qo'yilgan talablar**<br>Bu kursni o'rganish natijasida tinglovchilar quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashlari lozim:<br>• Eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodlari;<br>• Eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ishlarni rejalashtirish va ish turlarini tashkil etish;<br>• Kar bolalar eshitish qobiliyatini tekshirish;<br>• O'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish.<br>**20 -mavzu. Eshitishda nuqsoni bor bolalarni o'qitishdagi turli bosqichlarda eshitish qobiliyatini rivojlantirishning o'rni va axamiyati**<br>Ushbu kursni o'qishda umumiy pedagogika, psixologiya, maxsus metodika fanlaridan olingan bilimlarga asoslaniladi. |

Eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodikasi bolalarni og‘zaki nutqqa o‘rgatish; texnik vositalardan foydalanish; og‘zaki nutqqa o‘rgatish metodlari va bosqichlari; og‘zaki nutqqa o‘rgatishda amalga oshiriladigan ish turlari kabi masalalarni aks ettiradi.

**Mavzu: Karlar va xilma-xillikni o'rganishga kirish.**

Boshlang'ich kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, kar va xilma-xillikni o'rganish, imo-ishora tili va tarjimashunoslik bo'yicha asosiy savollarni o'z ichiga oladi.

**Mavzu: Lingvistik asoslar va lingvistik bilimlar.**

Imo-ishora tili hamjamiyatining madaniyati, ijtimoiy tuzilmalari va muloqoti haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan.

**Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Daktil alfaviti. Daktillash tempi ustida ishlash.
2. So‘zlarni daktillashni mashq qilish.
3. Gaplarni daktillashni mashq qilish.
4. Matnlarni daktillashni mashq qilish. (“Shaxar”, “Yil fasllari”, “Transport” )
5. Matnlarni daktillashni mashq qilish. (“O‘quv qurollari”, “Mevalar”, “Sabzavotlar” )
6. Daktilayotgan qo‘ldan o‘qishini mashq qilish.
7. Daktilli diktant.
8. Diktant taxlili.
9. Suhbat, savollar tarjimasi.
10. So‘zlashuvlar tarjimasi.
11. O‘tilgan mavzular bo‘yicha moslashtirilgan matnlarni tarjima qilish.
12. Maktabgacha yoshdagi kar bolalarni og‘zaki nutqga o‘rgatish
13. Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalarni og‘zaki nutqga o‘rgatish
14. Kar o‘quvchilarning eshituv idrokini rivojlantirish ishlarini rejalashtirish
15. Zaif eshituvchi o‘quvchilarning eshituv idrokini rivojlantirish ishlarini rejalashtirish
16. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida nutqiy materialni qabul qilishni rivojlantirish ishlarining o‘ziga xosligi
17. Zaif eshituvchilar maktablarida eshituv xonalari va ularning vazifalari
18. Karlar maktablarida eshituv xonalari va ularning vazifalari

| | |
|---|---|
| | 19. Karlar maktablarida talaffuzni shakllantirish ishlarini rejalashtirish<br>20. Zaif eshituvchilar maktablarida talaffuzni shakllantirish ishlarini rejalashtirish<br>21. Karlar maktabida darslarga qatnashish<br>22. Zaif eshituvchi maktabiga darslarda qatnashish (1-bo‘lim)<br>23. Zaif eshituvchi maktabiga darslarda qatnashish (2-bo‘lim)<br>24. Kar bolalar maktabgacha muassasalarda frontal mashg‘ulatlarda qatnashish<br>25. Kar bolalar maktabgacha muassasalarda individual mashg‘ulatlarda qatnashish<br>26. Karlarni talaffuzga o‘rgatishning umumiy asoslari<br>27. Karlarni og‘zaki nutqiga tavsifnoma<br>28. Talaffuz ustida ishlashni tashkil etish<br>29. Kar bolalar maktablarida yakka mashg‘ulotlarda qo‘llaniluvchi interfaol usullar va ulaning didaktik imkoniyatlari<br>30. Kar bolalar maktablarida yakka mashg‘ulotlarda qo‘llaniluvchi interfaol usullar foydalanish tamoyillari va yo‘llari<br>31. Zaif eshituvchi bolalar maktablarida yakka mashg‘ulotlarda qo‘llaniluvchi interfaol usullar va ulaning didaktik imkoniyatlari<br>32. Zaif eshituvchi bolalar maktablarida yakka mashg‘ulotlarda qo‘llaniluvchi interfaol usullar foydalanish tamoyillari va yo‘llari<br>33. Karlar maktabida talaffuz ustida ish olib borilish mazmuni<br>34. Karlar maktabida talaffuz ustida ish olib borilish usullari.<br><br>35. Umum - ta’lim darslarida talaffuzni shakllantirishning ustida ish olib borilishi.<br>36.Umum - ta’lim darslarida talaffuzni shakllantirishning ustida ish olib borilish usullari<br>37. Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning ustida ish olib borilishi.<br>38. Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning ustida ish olib borilish texnologiyasi.<br>39. Umum - ta’lim darslarida Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning ustida ish olib borilishi.<br>40.Umum - ta’lim darslarida Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning ustida ish olib borilishitexnologiyasi<br><br>Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, |

mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV.Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Imo-ishora tilining taraqqiyoti .
2. Yangi so‘zlar, tushunchalar, abstrakt tushunchalar, atoqli otlar, atamalar grammatik toifalar uchun yangi ishoralarning shakllanishi.
3. Yangi ishoralarning imo-ishoralar tili tizimidagi o‘rni.
4. Imo- ishorali nutqni bilishi va kar bolalar ta`lim-tarbiyasi jarayonida qo‘llab olishining surdopedagog uchun ahamiyati.
5. Eshituvchilar va karlar orasida muloqot vositasi sifatida imo-ishora nutqini, uning texnikasi, yuzdan o‘qiy olish imkoniyatini tutgan o‘rni.
6. Daktil va imo-ishora nutqini o‘quv tarbiya va ommaviy-madaniy ishlardan qo‘llanilishi.
7. Daktil ishorali nutqning tarjimasi tahlili.
8. Tarjima jarayoniga ta`sir ko‘rsatuvchi omillar.
9. Karlar maktabida eshituv xonaning jihozlanishi, uning vazifasi.
10. Talaffuz malakalarini nutqiy eshituv qobiliyatiga ta’siri.
11. Eshitish qobiliyatini audiometr yordamida tekshirish.
12. Nutq audiometriyasi.
13. Eshitish xonasida frontal darslar.
14. Kar bolalar maktabida gaplarni farqlash bo‘yicha olib boriladigan ishlar.
15. Eshtuv idrokini rivojlantirish ishining tizimi.
16. Talaffuzga o‘rgatish davrlari.
17. Karlarda nutqiy nafas, ovoz va tovush qo‘yish usullari.
18. Karlarni talaffuzga o‘rgatish metodlari.
19. Nutqning ko‘ruv idrokini rivojlantirish (labdan o‘qish).
20. ENB bolalarni o‘qitishda nutqdan foydalanish.
21. Eshitish xonada frontal mashg‘ulotlar.
22. Karlar maktabida individual mashg‘lotlar.
23. Og‘zaki nutq va uning rivojlanish xususiyatlari.
24. Talaffuz ustida ishlashni tashkil etish
25. Karlar maktablarida talaffuzni shakllantirish ishlarini rejalashtirish
26. Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalarni og‘zaki nutqga o‘rgatish
27. Maktabgacha yoshdagi kar bolalarni og‘zaki nutqga o‘rgatish
28. Karlarni talaffuzga o‘rgatishning umumiy asoslari

| | |
|---|---|
| | 29. Zaif eshituvchilar maktablarida eshituv xonalari va ularning vazifalari<br>30. Umum - ta'lim darslarida talaffuzni shakllantirishning ustida ish olib borilish usullari<br>31. Yangi ishoralarning imo-ishoralar tilidagi urni<br>32. Daktil imo-ishorali nutqning tarjimasi taxlili<br>33. Nutq audiometriyasi<br>34. Eshituv xonasida frontal darslar<br>35. Yangi ishoralarning imo-ishoralar tizimidagi o‘rni<br>36. Eshituvchilar va karlar orasida muloqot vositasi sifatida imo-ishora nutqini, uning texnikasini va yuzdan o‘qish imkoniyatining tutgan o‘rni<br>37. Daktil va imo-ishora nutqini o‘quv tarbiya va ommaviy-madaniy ishlarda qo‘llanilishi<br>38. Tarjima jarayoniga taьsiri<br>39. Karlar maktablarida eshituv xonalari va ularning vazifalari<br>40. Kar o‘quvchilarning eshituv idrokini rivojlantirish ishlarini rejalashtirish<br>41. Karlar maktabida talaffuz ustida ish olib borilish usullari.<br>42. Kar bolalar maktablarida yakka mashg‘ulotlarda qo‘llaniluvchi interfaol usullar foydalanish tamoyillari va yo‘llari<br>43. Talaffuz malakalarini eshituv qobiliyatiga ta'siri<br>44. Karlar maktabida eshituv xonalarining jixozlanishi, uning vazifalari<br>45. Karlarni og‘zaki nutqiga tavsifnoma<br>46. Talaffuz malakalarini oshirish ustida ish olib borish<br>47. Zaif eshituvchilar maktablarida talaffuzni shakllantirish ishlarini rejalashtirish<br>48. Kar bolalar maktabgacha muassasalarda frontal mashg‘ulatlar<br>49. Kar bolalar maktabgacha muassasalarda individual mashg‘ulatlar<br>50. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida nutqiy materialni qabul qilishni rivojlantirish ishlarining o‘ziga xosligi<br><br>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| **3.** | **V Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:<br>• daktilologiyaning mazmuni va uni egallash usullari, imo-ishora nutq mazmuni, kar bolalarning imo-ishorali tilining rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar; eshitishida nuqsoni bor bolalarni o‘qitishdagi turli bosqichlarda daktil nutqning o‘rni va ahamiyati; imo-ishora tilining |

| | |
|---|---|
| | taraqqiyoti; eshitishida nuqsoni bo‘lgan va eshituvchilar tomonidan og‘zaki nutqni imo-ishorali nutqga, va aksincha imo-ishorali nutqni og‘zaki nutqga tarjima qilinishi; talaffuzni shakllantirish metodikasi kursining korreksion ta’lim va tarbiya jarayonidagi ahamiyatini; eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda eshitish qoldig‘ini va eshitishning pasayishi, talaffuzini shakllantirish ishlari;nutqiy eshitishni shakllantirish, eshitish va nutq a’zolarining fiziologiyasi va patologiyasini; eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar eshituv holati va og‘zaki nutqini tekshirish ishining mazmuni va metodikasini, eshitish idrokini rivojlantirish texnologiyalarini va talaffuzini shakllantirish metodikalarini bilishi kerak;<br>• imo-ishora nutqini egallash usullari, daktil nutqidan so‘zlashuv vositasi sifatida foydalanish, imo-ishora nutqidan so‘zlashuv vositasida tarjima qilish;kar va zaif eshituvchi bolalar tomonidan nutqni eshitib idrok etish imkoniyatlarini aniqlash; total nutkiy audoimetriya ma’lumotlarini taqqoslash; ovoz kuchaytirgich asboblardan foydalanish, eshitish idrokini rivojlantirish;yakka mashg‘ulotlar uchun didaktik materiallar va didaktik o‘yinlar tanlash, korreksion-pedagogik ish jarayonini tahlil qilish va baholashni ko‘nikmalariga ega bo lishi kerak;<br>• eshitish faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishni tashkil etish, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqiy eshitishi va talaffuzini shakllantirishning metodik usullarini qo‘llay olish; tibbiy-pedagogik hujjatlarni yuritish; korreksion-pedagogik vaziyatni modellashtirish, audiometrik tekshiruvlar o‘tkazish; eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga daktil va imo-ishorali nutqni o‘rgatish, mashg‘ulotlarni o‘tkazish;talaffuzni shakllantirish mashg‘ulotlarini o‘tkazish malakalariga ega bo‘lishi kerak. |
| **4.** | **VI.Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar** |

| | |
|---|---|
| | 1. F.F.Paramonova F.J.Alimxojayeva Z.A.Sharipova. O‘zbekiston karlarining imo ishora nutqi //qo’llanma- Toshkent, 2004.<br>2. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta'lim:nazariyasi va metodikasi//Darslik, Toshkent-2022.<br>3. Р.Н.Фредника. Говаряшие руки // Darslik. – M:2001.<br>4. Z.N.Mamarajabova, D.T.Yembergenov, D.F.Muhammadjonova. Imo-ishora nutqi segmentatsiyasi. Darslik. – T: 2024.<br>5. Z.N.Mamarajabova, M.M.Abdullayeva. Daktilologiya va imo-ishora nutqi. Darslik. – T: 2024.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. T.: “Adolat”, 2017.<br>2. Гейльман.И.Ф.- Специфические средства общения глухих : дактилология и мимика. М-2021.<br>3. Головчиц.Л.- Дошкольная сурдопедагогика. М-2001.<br>4. Зайсева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021<br><br>**Axborot manbaalari**<br>1. http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.<br>2. http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.<br>3. http://www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portali.<br>4. http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali.<br>5. http://www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi sayti.<br>6. https://studienorientierung.uni-koeln.de/studienangebot/index_ger.html?app=true&id=47 . |
| **7.** | **Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan** |
| **8.** | **Fan/modul uchun ma’sul:**<br>L.Xayitov–Qo‘qon DU “Maxsus pedagogika“ kafedra mudiri, dotsent,p.f.b.f.d (PhD)<br>I.Haydarov – Qo‘qon DU, Pedagogika fakulteti, “Maxsus pedagogika“ kafedra o’qituvchisi. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>M.Kodirov – TDPU “Maxsus pedagogika” fakulteti dekan o‘rinbosari, v.b |

| | |
|---|---|
| | dotsent, p.f.b.f.d (PhD) |